



ADVOKATNING YURIDIK XIZMAT TIZIMIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA VAKOLATLARINING NAZARIY TAVSIFI

Yulchiyev Baxodirjon Zokirovich

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20502498>

Annotatsiya:

Mazkur maqolada advokatning yuridik xizmat tizimidagi huquqiy maqomi va uning vakolatlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Advokatlik faoliyatining huquqiy asoslari, uning huquq va majburiyatlari, shuningdek, protsessual va noprotsessual vakolatlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, advokatning mustaqilligi, kasbiy etika qoidalari hamda advokatlik siri kabi muhim institutlar huquqiy maqomning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada advokatning odil sudlovni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va huquqiy davlatni shakllantirishdagi o'rni alohida ta'kidlangan. Tadqiqot advokatura institutini rivojlantirish va uning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash masalalarini ham qamrab oladi.

Kalit so'zlar: advokat, yuridik xizmat, huquqiy maqom, vakolat, advokatura, himoya funksiyasi, odil sudlov, advokatlik siri, kasbiy etika, inson huquqlari, protsessual vakolatlar, mustaqillik.

Huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Insonning buzilgan huquqlarini tiklash, qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda adolatli sudlovni ta'minlashda advokatura instituti alohida o'rin egallaydi. Advokatlik faoliyati huquqiy xizmatlar tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish orqali qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.


Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi.

Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi.

Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi¹.

Advokatning huquqiy maqomi, uning vakolatlari, huquq va majburiyatlari nafaqat milliy qonunchilikda, balki xalqaro huquqiy hujjatlarda ham mustahkamlangan. Advokatlarning faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan ularning mustaqilligi, daxlsizligi va qonun bilan belgilangan vakolatlarining to'liq amalga oshirilishiga bog'liqdir. Shu sababli advokatning yuridik xizmat tizimidagi o'rni va huquqiy maqomini nazariy jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Advokat – bu qonunda belgilangan tartibda advokat maqomini olgan hamda jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatadigan shaxsdir. Advokatlik faoliyati professional huquqiy faoliyat turi hisoblanib, uning asosiy





maqsadi fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Yuridik adabiyotlarda advokatning huquqiy mohiyati turlicha yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Bir guruh olimlar advokatni fuqarolik jamiyati instituti sifatida baholasa, boshqa tadqiqotchilar uni odil sudlovni amalga oshirishda ishtirok etuvchi mustaqil huquqiy subyekt sifatida tavsiflaydilar. Har ikki yondashuvning umumiy jihati shundaki, advokat davlat organlaridan mustaqil faoliyat yurituvchi, fuqarolarning huquqiy himoyasini ta'minlovchi professional huquqshunos hisoblanadi.

Ba'zi olimlarning qarashlariga ko'ra, advokat uchun ishonch bildiruvchi shaxsning manfaatlari doimo birinchi o'rinda bo'lmog'i lozim. Xususan, V. Burobinning fikricha, "advokat uchun "ishonch bildiruvchi shaxs doimo haq" degan qoida imperativ xarakterga ega"². Mazkur fikrga qo'shimcha tarzda S. Shirinskiy esa "advokat himoya pozitsiyasi borasida ishonch bildiruvchi shaxsdan yozma rozilik olishi zarur" ekanligini ta'kidlaydi³.

Mazkur fikrlarga nisbatan o'z pozitsiyamizni bildiradigan bo'lsak, albatta, ushbu qarashlarning asosli ekanligini ta'kidlash lozim. Biroq advokat tomonidan "ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlarining ustunligi" prinsipiga amal qilish jarayonida qonun doirasida ish yuritishi hamda uning manfaatlarini himoya qilish uchun noqonuniy usullardan foydalanmasligi zarurligini ham yodda tutish kerak.

Advokatning asosiy vazifasi faqat sudda himoya qilish bilan cheklanmaydi. U huquqiy maslahat beradi, huquqiy hujjatlar tayyorlaydi, muzokaralarda vakillik qiladi, nizolarni sudgacha hal etishda ishtirok etadi hamda huquqiy profilaktika faoliyatini amalga oshiradi. Shu jihatdan advokatlik faoliyati keng qamrovli huquqiy xizmatlar tizimini tashkil etadi.

Yuridik xizmatlar tizimi fuqarolar va tashkilotlarga ko'rsatiladigan huquqiy yordamning barcha shakllarini o'z ichiga oladi. Ushbu tizimda davlat organlarining yuridik xizmatlari, notariat, mediatsiya, konsalting xizmatlari va advokatura muhim o'rin tutadi. Advokatura mazkur tizimning eng muhim institutlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Advokatning yuridik xizmatlar tizimidagi o'rni bir necha jihatlar bilan belgilanadi. Birinchidan, advokat fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishning eng muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, u odil sudlovni amalga oshirishda tenglik va tortishuv tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, advokat huquqiy madaniyatni yuksaltirish va huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Advokatlik faoliyati fuqarolar va davlat o'rtasida o'ziga xos huquqiy ko'prik vazifasini bajaradi. Fuqaro o'z huquqlarini mustaqil himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan hollarda advokat uning manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi.

² Буробин В. Адвокатская деятельность. – М.: МНЭПУ, 2001, -Б. 56.

³ Ширинский С.Ф. Адвокат не вправе вредить своему подзащитному. // Адвокату -2000. -№5. -Б. 25.В.А. Вельгорецкая Адвокатская тайна: необходимость существования и сущность [Qayd daftari] // Территория науки. - 2015 yil. - bet. 170-176





Shu sababli advokatura institutining rivojlanish darajasi mamlakatda inson huquqlari himoyasi holatini baholash mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

Shuningdek, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va xalqqa yo'llagan Murojaatnomasida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida e'tirof etilib, ushbu yo'nalishda bir qator amaliy takliflar ilgari surildi. Xususan, davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni elektron tanlash tizimini joriy etish, advokatga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilishi yoki tugatilishi haqidagi qaror nusxasini taqdim etish, shuningdek, sudga jinoyat ishini ayblov xulosasi bilan birga himoyachining fikri asosida taqdim etish kabi mexanizmlarni joriy qilish taklif etildi.

Mazkur islohotlar natijasida advokatlarning kasbiy faoliyati va ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash masalasi nafaqat yuridik, balki ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni mustahkamlash nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Shu jihatdan, bu sohani ilmiy asosda chuqur o'rganish zarurati yuzaga keldi⁴.

Huquqiy maqom deganda shaxsning jamiyat va davlatdagi huquqiy holatini belgilovchi huquq, majburiyat, vakolat va javobgarliklar yig'indisi tushuniladi. Advokatning huquqiy maqomi ham aynan shu elementlardan tarkib topadi.

Advokatning huquqiy maqomi quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, advokatning huquqlari. Advokat qonun bilan belgilangan vakolatlar asosida ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni to'plash, hujjatlar bilan tanishish, davlat organlariga so'rov yuborish, mutaxassislarni jalb etish hamda himoya qilinayotgan shaxs manfaatlarini ifodalash huquqiga ega.

Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan hamda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani qonunchilikda belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi advokatlik byurosini tashkil etib, advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga oshirish huquqiga ega⁵.

Ikkinchidan, advokatning majburiyatlari. Advokat qonunchilik talablariga rioya qilishi, advokatlik sirini saqlashi, kasb etikasi qoidalariga amal qilishi va mijoz manfaatlarini vijdonan himoya qilishi shart.

Uchinchidan, advokatning mustaqilligi. Advokatning huquqiy maqomining eng muhim elementi uning mustaqilligi hisoblanadi. Advokat o'z faoliyatini amalga oshirishda faqat qonunga bo'ysunadi va har qanday noqonuniy aralashuvdan himoyalangan bo'ladi.

To'rtinchidan, advokatning javobgarligi. Advokat qonun buzilishiga yo'l qo'ygan taqdirda intizomiy, fuqarolik-huquqiy yoki boshqa turdagi javobgarlikka tortilishi mumkin.

⁴ Sh.M. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5774> (murojaat qilingan sana: 01.06.2026).

⁵ Furumov D., Matmurotov A. Advokatura [Advocacy]. Tashkent, 2021, p. 29





Vakolat tushunchasi davlat yoki nodavlat subyektga muayyan harakatlarni amalga oshirish uchun berilgan huquq va imkoniyatlar majmuini anglatadi. Advokat vakolatlari uning professional faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy vositalar tizimini tashkil etadi.

Advokat vakolatlarining nazariy asosini inson huquqlarining ustuvorligi, qonuniylik, mustaqillik va adolat tamoyillari tashkil etadi. Mazkur tamoyillar advokatning har qanday huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Advokat O'zbekiston Respublikasining butun hududida, shuningdek, agar olingan topshiriqni bajarish zaruriyati taqozo etsa va tegishli davlatlarning qonun hujjatlariga zid bo'lmasa, respublika tashqarisida ham advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega. Muayyan ishni olib borishga advokatning vakolatli ekanligi advokatlik orderi bilan tasdiqlanadi⁶.

Advokat vakolatlari protsessual va noprotsessual vakolatlariga bo'linadi. Protsessual vakolatlar sud va tergov jarayonlarida amalga oshiriladigan huquqlarni qamrab oladi. Noprotsessual vakolatlar esa huquqiy maslahat berish, hujjatlar tayyorlash, muzokaralarda qatnashish va boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Advokatning vakolatlari himoya va vakillik funksiyalarini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu vakolatlar mavjud bo'lmaganda advokatning faoliyati formal xarakterga ega bo'lib qoladi va inson huquqlarini samarali himoya qilish imkoniyati cheklanadi.

Advokatning eng muhim vakolatlaridan biri himoya funksiyasini amalga oshirish hisoblanadi. Ayniqsa jinoyat protsessida himoyachi sifatidagi faoliyat advokatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Advokat himoya faoliyatini amalga oshirish davomida ish materiallari bilan tanishish, dalillar taqdim etish, iltimosnomalar kiritish, ekspertiza tayinlashni so'rash, protsessual qarorlar ustidan shikoyat qilish kabi vakolatlariga ega bo'ladi.


Mazkur vakolatlar ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Himoyachining faol ishtiroki tergov va sud organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashning muhim omillaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi 721-I-son Qonuni 4-moddasida⁷ muayyan ishni olib borishga advokatning vakolatli ekanligi order bilan tasdiqlanishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 61-moddasida⁸ advokatlar shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillar sifatida iqtisodiy ishda ishtirok etishi haqida norma keltirilgan. Kodeksning 62-moddasida advokatning vakolatlari qonunchilikda belgilangan

⁶ O'zbekiston Respublikasi Huquqiy axborot portali. <https://advice.uz/oz/document/3403>

⁷ O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 1-son, 12-modda. <https://lex.uz/docs/-29626>

⁸ O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018y. <https://lex.uz/uz/docs/-3523891>





tartibda tasdiqlanishi orqali boshqa qonunga havola qiladi. Ya'ni qonunchilikka kiritilgan muhim o'zgarishlardan advokat so'rovi yuborilgan davlat organi yoki tashkilot, tegishli ishni ko'rib chiqayotgan sud yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ tomonidan advokatning muayyan ishga vakolatligini elektron orderdagi QR-kodni skanerlash orqali aniqlash imkoniyatini beradi. Biroq IPKning 62-moddasida vakilning sudda ish yuritishga doir vakolatlari qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada ko'rsatilgan bo'lishi belgilangan. Qonunchilikda bunday normaning mavjudligi qaysidir jihatdan advokatning ham order, ham ishonchnoma asosida sudda vakillik qilishi shart ekanligini anglatadi. To'g'ri, iqtisodiy protsessda advokatlar ko'p holatda tadbirkorlik subyektlarining shartnoma bo'yicha vakili bo'lib, ulardan ishonchnoma olishi katta muammoni keltirib chiqarmasligi mumkindir. Ammo orderning o'zi uni vakillik qilishi uchun yetarli asos hisoblanadi. Vaholanki, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonun 7-moddasiga muvofiq, advokatlik faoliyatini amalga oshirishda biron-bir maxsus ruxsatnoma (order va advokat guvohnomasidan tashqari) talab qilish yoki boshqa to'siqlar vujudga keltirish man etiladi.

Nazariy jihatdan himoya funksiyasi shaxs va davlat o'rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlashga qaratilgan. Davlat ayblovi vakolatiga ega bo'lgan bir paytda advokat himoya funksiyasi orqali taraflarning protsessual tengligini ta'minlaydi.

Advokatlik faoliyati qator fundamental prinsiplarga asoslanadi. Ushbu prinsiplarga qonuniylik, mustaqillik, maxfiylik, professionallik, halollik va insonparvarlik kiradi.

Qonuniylik prinsipi advokat faoliyatining qonun talablariga muvofiq amalga oshirilishini anglatadi. Mustaqillik prinsipi esa advokatning tashqi ta'sirlardan xoli holda faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Maxfiylik prinsipi advokatlik sirining daxlsizligini nazarda tutadi. Mijoz tomonidan berilgan ma'lumotlarning oshkor etilmasligi advokat va mijoz o'rtasidagi ishonchli munosabatlarning asosini tashkil etadi.

Professionallik prinsipi advokatdan yuqori malaka va doimiy ravishda bilimlarini oshirib borishni talab qiladi. Zamonaviy huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi advokatlardan chuqur nazariy va amaliy tayyorgarlikni talab etmoqda.

Advokat mustaqilligi advokatura institutining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Mustaqillik bo'lmagan joyda samarali himoya faoliyatini amalga oshirish qiyinlashadi.

Advokat faoliyatiga noqonuniy aralashish taqiqlanadi. Advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda ta'qib qilinishi yoki bosim ostida qolishi mumkin emas.

Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.





Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi.

Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi⁹.

Advokatlik sirining daxlsizligi ham mustaqillikning muhim kafolatlaridan biridir. Advokat bilan mijoz o'rtasidagi muloqot maxfiy hisoblanadi.

Xalqaro standartlarda ham advokatlarning mustaqilligi inson huquqlarini himoya qilishning asosiy shartlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Advokatlar o'z faoliyatini quyidagi asosiy prinsiplar asosida olib borishlari lozim:

- advokatning mustaqilligi;
- advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va qasamyodiga rioya etishi;
- qonunda taqiqlanmagan usullar va vositalarni qo'llashi.

Mazkur prinsiplar orasida advokatning mustaqilligi alohida o'rin tutadi. Chunki advokatlik kasbining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan jinoyat ishlarida himoyachilik funksiyasi aksariyat hollarda davlat bilan ziddiyatga kirishgan, ya'ni manfaatlari to'qnashgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishni taqozo etadi¹⁰.

Bugungi kunda advokatura institutini rivojlantirish va advokatlarning huquqiy maqomini mustahkamlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Advokatlarning mustaqilligini yanada kuchaytirish, ularning kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarning oldini olish hamda protsessual imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Shuningdek, advokatlarning malakasini muntazam oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va bepul yuridik yordam tizimini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kuchli va mustaqil advokatura instituti mavjud bo'lgan davlatlarda inson huquqlari himoyasi darajasi yuqori bo'ladi. Shu sababli advokatura tizimini takomillashtirish huquqiy davlat qurishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, advokat yuridik xizmatlar tizimining markaziy subyektlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Advokatning huquqiy maqomi huquqlar, majburiyatlar, vakolatlar, mustaqillik va javobgarlik kabi elementlardan tarkib topadi.

Advokat vakolatlarining samarali amalga oshirilishi inson huquqlarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash va odil sudlovga erishishning muhim shartidir. Advokat huquqi tan olinadigan hech bir sud yoki ma'muriy organ advokatning sudda o'z mijozining manfaatlarini himoya qilish huquqini rad

⁹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 142-modda

¹⁰ Salomov B. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar): yuridik fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2005.





etishga haqli emas. Biroq milliy qonunchilik hamda amaliyot talablariga va mazkur prinsiplarga muvofiq ravishda yuristning kasbiy faoliyatni amalga oshirish huquqidan mahrum etilgan holatlar bundan mustasno hisoblanadi¹¹.

Advokatura institutining rivojlanishi fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatning rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu bois advokatlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularning mustaqilligini ta'minlash va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdialiev D. Konstitutsionnye osnovy garantiy advokatskoy deyatelnosti // Jamiyat va innovatsiyalar – Obshchestvo i innovatsii – Society and Innovations. Special Issue – 01. – 2024. – ISSN 2181-1415.
2. Golovanov Sergey Sergeevich. Garantii nezavisimosti i neprikosновенности адвокатов // Voprosy sovremennoy yurisprudentsii. – 2017. – № 5 (66).
3. Burobin V. Advokatskaya deyatelnost. – Moskva: MNEPU, 2001. – 432 b.
4. Shirinskiy S.F. Advokat ne vprave vredit svoemu podzashchitnomu // Advokat. – 2000. – № 5.
5. Salomov B. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar): yuridik fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2005.
6. O'roqova X. "Huquqlarimiz qo'pol ravishda buzilmoqda" – Qashqadaryodagi advokatlar muammolari qachon barham topadi? // Advokat Press. – 2022. – Avgust. – № 8 (19).
7. Velgoretskaya V.A. Advokatskaya tayna: neobxodimost sushchestvovaniya i sushchnost // Territoriya nauki. – 2015. – B. 170–176.
8. Strogovich M.S. Zashchita po ugolovnym delam. – Moskva: Gosyurizdat, 2012.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
10. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.
11. O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni.

¹¹ Yuristlarning roliga oid asosiy prinsiplar. 07.09.1990. BMTning Advokatlar roli to'g'risidagi asosiy prinsiplari. – Havana, 1990.

